

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI**

**B-464 GURUH TALABASI OLMOSOV RUSLANNING “MOLIYAVIY
HISOB” FANIDAN “DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI
TAHLILI” MAVZUSIDA YOZGAN**

KURS ISHI

Bajardi:

Olmosov R.

Qabul qildi:

Xolmurodov O.

QARSHI-2015

REJA:

Kirish.

1. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA XO'JALIK YURITUVCHI
SUB'EKTLARNING O'RTASIDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK
MAJBURIYATLARINING MAZMUNI VA MOHIYATI.
2. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING VUJUDGA KELISH
SABABLARI HAMDA ULARNI BOSHQARISH.
3. XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING DEBITORLIK VA
KREDITORLIK MAJBURIYATLARINING TAHLILI.
4. XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING DEBITORLIK VA
KREDITORLIK QARZLARINI KAMAYTIRISH YO'LLARI.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Bozor munosabatlari sharotida har qanday korxona boshqa xo'jalik sub'ektlari, moliyaviy muassalar va davlat byudjeti bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarni amalga oshiradi. Korxonalar xo'jalik – moliyaviy faoliyatini amalga oshirish jarayonida ularning majburiyatlarini to'g'ri tashkil etish va ulardan oqilona foydalanish muhim masalalardan biri sanaladi. Korxona majburiyatlaridan oqilona foydalanish, birinchi navbatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xajmini oshiradi, ikkinchi navbatda mamlakatda to'lov tizimini rivojlantirishga va byudjet daromadlarini o'z vaqtida shakllanishiga ta'sir etadi.

Shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, korxona majburiyatlarini oshib ketishi va bu borada boshqaruv qarorlarini noto'g'ri qabul qilinishi, korxonalarni moliyaviy barqarorligini keskin tushib yuborishi va buning natijasida inqirozga olib kelishi mumkin. Mamlakatimizda korxonalar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, jumladan korxonalarga soliq imtiyozlarini belgilash, valyuta operastiyalarini amalga oshirish va bank kreditlaridan foydalanishda keng imkoniyatlar yaratilganligi korxona majburiyatlarini samarali boshqarishda muhim mezon bo'lib hisoblanadi.

Keyingi yillarda bu borada mamlakatimizda ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq yukini kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 7 foizdan 6 foizga, 2016 yildan boshlab esa 5 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omillar yaratadi. Albatta davlatimiz tomonidan bunday turdagi imtiyozlarni berilishi korxona majburiyatlarini kamaytirish, ulardan oqilona foydalanish va bo'sh resurslarni ishlab chiqarishga reinvestitsiya qilish va buning natijasida korxonalar foydalilik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

O'z navbatida shu narsani ham qayd etib lozimki, hozirgi kunda korxonalar majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslik, majburiyatlarni noto'g'ri taqsimlanishi va bu borada boshqaruvda ayrim kamchilik va muammolar ham mavjud. Korxona majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilmasligi ishchi va xodimlarni ishdan bo'shashiga, korxonalarni ta'sischilari va mulkdorlar oldidagi ishonchini yo'qolishiga, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassalar oldida o'zining imidjini tushib ketishiga olib keladi.

1. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING O'RTASIDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK MAJBURIYATLARINING MAZMUNI VA MOHIYATI.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy, mehnat va pul resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ko'pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga bosqichma – bosqich tayyor bo'lib bordi.

Korxonalar o'rtasida bo'ladigan, shuningdek, kredit tashkilotlari va nazorat tashkilotlari o'rtasidagi hisob-kitob to'lovlarida kechiktirilgan vaqt bo'yicha farqlanishlar kelib chiqadi. Bunda korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlariga quyidagicha sharh berish mumkin. Qarshi tomonga to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, qarshi tomondan olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar debitorlik majburiyatlari deyiladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob-kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Lekin to'lov muddatining oshib ketishi korxonalar moliyaviy ahvoliga katta ta'sir o'tkazadi. SHu maqsadda korxonalar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bevosita korxona bilan qarshi tomon o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarda kelib chiqadigan majburiyatlardir. Bu majburiyatlar korxona bilan mol etkazib beruvchilar yoki xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda, korxona bilan bank tashkilotlar o'rtasida, korxona bilan soliq

organlari o'rtasidagi, korxona bilan ijtimoiy ta'minot bo'limlari va turli jamoat tashkilotlari, shuningdek xodimlar, mulk egalari, akstionerlar va investorlar bilan bo'ladigan munosabatlarda yuzaga keladi (1.1-jadval).

1.1-jadval

Korxona bilan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari kelib chiqadigan tomonlar¹

Debitorlik majburiyatlar:	Kreditorlik majburiyatlari:
▶ Korxonalar va mol etkazib beruvchilar o'rtasida; ▶ Xaridorlar o'rtasidagi; ▶ Bank tashkilotlar o'rtasida; ▶ Soliq organlari o'rtasidagi; ▶ Ijtimoiy ta'minot bo'limlari; ▶ Turli jamoat tashkilotlari va boshkalar.	▶ Korxonalar va mol etkazib beruvchilar urtasida; ▶ Xaridorlar o'rtasidagi; ▶ Bank tashkilotlar o'rtasida; ▶ Soliq organlari o'rtasidagi; ▶ Ijtimoiy ta'minot bo'limlari; ▶ Turli jamoat tashkilotlari va boshkalar.

Ularning yuzaga kelishining asosiy sababi hisob-kitoblarda vaqtning o'zgaruvchanligidir. Ya'ni bugun ortilgan mahsulot ham puli to'langunga qadar debitorlik va kreditorlik majburiyatlar qatoriga kiritiladi. Bunda daromad va xarajatlarning yuzaga chiqishi bilan ular bo'yicha hisob-kitoblarning amalga oshishi orasida farqlanish kelib chiqadi. Korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishining yana bir sababi hisob-kitoblarda to'lovlar muddatining yoki sanasining turli hisobot davriga tushib qolishidir. Bunda debitorlik kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chiqishiga har qanday holda ham yo'l qo'yiladi. Agarda mahsulotlar ortib jo'natish orqali sotiladigan bo'lsa, bunda

¹Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili – Toshkent: SHARQ, 2007 y., 29 b.

to'lovlar amalga oshish sanasiga qadar, agarda tovarlar pulini oldindan to'lash asosida sotiladigan bo'lsa, bunda ham tovarlarni jo'natish sanasiga qadar majburiyat, qarz sifatida hisobda aks ettiriladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishi bo'yicha quyidagilar kiradi:

- O'zaro hisob-kitoblarda tamonlarning to'lov layoqatiga ega emasligi;
- tovarlarni ortib jo'natish va sotishda hisob-kitoblarning zamonaviy shakllarining cheklanganligi;
- mulk va unga egalik qilishda ma'sullik hissining yo'qligi;
- o'zaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;
- daromadlarni tan olish yuzasidan korxonalar tarmoq xususiyatidan kelib chiqilmaganligi;
- xarajatlar tarkibiga kiruvchi ish va xizmatlarni hisobga olishda qat'iy hujjatlashtirish mezonlarining yo'qligi;
- xodimlar va kapital egalari bilan korxona o'rtasidagi munosabatlarda qat'iy shartlarning yo'qligi;
- kredit tashkilotlari bilan mijoz o'rtasida bo'ladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baholashning uslubiy asoslaridagi kamchiliklar;
- sug'urta tashkilotlari bilan korxonalar o'rtasidagi munosabatlarda qat'iy davlat qonunchilik mexanizmining mavjud emasligi va x.k.

Debitorlik majburiyatlari tarkibi deganda, uning yuzaga chiqish qatorlari yoki o'rni tushuniladi. Korxona balansi bo'yicha uning quyidagi qatorlarini tarkiblab o'tish mumkin: xaridor va buyurtmachilarga bo'lgan debitorlik majburiyatlari, xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik majburiyatlar, ish xaqidan ajratmalar yuzasidan debitorlik majburiyatlari, soliqlar va turli boshqa to'lovlar bo'yicha debitorlik majburiyatlari va x.k.

Tahlil etishda debitorlik majburiyatlarining hajmi tarkibi hamda vujudga kelish muddati bo'yicha, o'rganish asosida ularning holatiga, aylanuvchanlik

darajasiga, debitorlik qarzlari bilan bog'lik bo'lgan moliyaviy holat ko'rsatkichlariga baho beriladi.

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi tahlilida qarzdor bo'lgan tomonlar bo'yicha majburiyatlarning qatorlanishi, ularni to'lash muddatlari bo'yicha tarkiblanishiga baho beriladi.

Kreditorlik majburiyatlarining to'lash muddatlari bo'yicha quyidagi tarkibini berib o'tish mumkin:

- to'lash muddati kelgan majburiyatlar;
- to'lash muddati o'tib ketgan majburiyatlar.

Yil kalendar davrining taqvim bo'yicha kreditorlik majburiyatlarining quyidagi shakllarini berish mumkin:

- ➔ 1 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- ➔ 1 oydan 2 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- ➔ 2 oydan 3 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- ➔ 3 oydan 6 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- ➔ 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan majburiyatlar;
- ➔ 1 yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlar.

Debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsienti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi bunda ham kreditorlik majburiyatlarining aylanishi koeffitsienti va davri aniqlanadi. Lekin, bunda qatnashuvchi ko'rsatkichlar farqlanadi. Kreditorlik majburiyatlarining aylanishini o'rganishda asosiy ko'rsatkichlar sifatida nasiyaga olingan yoki hali puli to'lanmagan mollar, ashyolar, ish va xizmatlar summasiga hamda kreditorlik majburiyatlarining haqiqiy ko'rsatkichlariga murojaat qilinadi.

Shuningdek, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tarkibida muddati o'tgan, to'lov muddati kelgan va to'lov muddati o'tmagan majburiyatlarni alohida tarkiblash mumkin.

Muddati o'tkazib yuborilgan majburiyatlarning yuzaga chiqish sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- korxonada moliyaviy holatning nosog'lom ekanligi;
- korxonaning to'lov layoqatiga ega emasligi;
- likvid mablag'lari aylanuvchanligining uzoqligi;
- shartnoma majburiyatlariga va to'lov shartlariga amal etmaslik;
- xo'jalik shartnomalari buzilishidan qo'riladigan zararlarning to'g'ri qoplanmasligi (shartnomalar buzilishida qo'llaniladigan choralarga amal etmasligi);
- zamonaviy hisob-kitob shakllariga yo'l berilmaganligi va h.k.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining undirib olish muddati 3 oy yoki 90 kalendar kun qilib belgilangan. Ushbu muddatdan so'ng debitorlik, kreditorlik majburiyatlari nazoratga olinadi hamda ularning holati buyicha davlat qonunchiligiga muvofiq javobgarlik shartlari (ma'muriy va moliyaviy) belgilangan.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini hisobdan chiqarish muddati sifatida huquqiy shaxslar o'rtasida ham, korxona bilan jismoniy shaxslar urtasida xam 3 yil muddat qilib belgilangan. Ushbu muddatda to'lanmagan yoki undirib olinmagan majburiyatlar, karzlar korxona fondi va zararlarga olib boriladi. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari davlat tamonidan nazorat qatori sifatida olingan. Muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik majburiyatlari korxona foydasiga qo'shiladi va umumiy asosda foydadan soliq stavkasi buyicha soliqqa tortiladi. Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlarini zararga olib borish soliqqa tortiladigan foyda summasini kamaytirmaydi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini foyda va zararlar qatoriga olib borish shartlari davlat xisob, soliq qonunchiligiga muvofiq qat'iy tartiblangan. Ya'ni, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini foyda va zararlar katoriga olib borishga kadar ularni tulash yoki undirib olish yuzasidan qanday

yozishmalar yoki murojaatlar bo'lgan, arbitraj qarori chiqarilgan yoki chiqarilmaganligi va x.k. buyicha dastlabki hujjatlar to'plami tayyorlanmog'i lozim. Faqat shundagina uni foyda va zararlar qatoriga olib borish mumkin. Aks holda, zaruriylik shartida kechiktirilgan majburiyatlar sifatida olinib, ma'sullar javobgarlikka tortiladi.

Muddati o'tgan, to'lash muddati kelgan majburiyatlar alohida hisobga olinadi va boshqariladi. Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlar debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotnomada alohida qatorlanadi. Ularning Respublika ichkarisidagi korxonalar va Respublikadan tashqaridagi korxonalar o'rtasida muddati o'tgan majburiyatlarga ajratish mumkin. Muddati o'tkazib yuborilgan majburiyatlar korxona moliyaviy holatini og'irlashtiruvchi asosiy sabab faktori sifatida olinadi va muhim e'tibor beriladi.

Jadal iqtisodiy sharoitlarda debitorlik va kreditorlik qarzlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga, korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradigan zarur hodisadir. Lekin mikroiqtisodiyotda debitorlik va kreditorlik qarzlari me'yordan oshib ketib muddatidan kechiktirilsa iqtisodiyotning mikro va makro darajalarida jiddiy falokat sifatida bir qator korxonalarning to'lovga qobiliyatsizligini keltirib chiqaradi. Bular esa korxonalarni bankrot bo'lishga olib boradi, davlat byudjetiga daromad tushishini kamaytiradi, iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotiga putur etkazadi. Debitorlik qarzlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: normal va normal bo'lmagan debitorlar.

Normal jarayon tufayli kelib chiqadigan qarzga quyidagilar kiradi: mahsulot etkazib beruvchilarga shartnoma asosida beriladigan bo'naklar (gaz, elektr energiyasi, avtotransport va aloqa xizmatlari, materiallar xarid qilish), shuningdek, to'lovlarning tovar bilan qaytarilmagan qismi, hisobot berish sharti bilan pul olgan (berilgan bo'naklar bo'yicha) shaxslarning belgilangan hisobot topshirish muddatlari doirasidagi qarzlari.

Normal bo'lmagan debitorlik qarzi: kamomadlar, talon-tarojlar, va o'g'riliklar bo'yicha qarzlarni, tovarlar (yoki xizmatlar) miqdori va sifati belgilangan assortimentga mos kelmasligi tufayli bildirilgan hamda javob beruvchilar tan olgan yoki haqamlar qarorqilgan qarzlardir.

Xo'jalik faoliyati jarayonida tugallanmagan hisob-kitoblar bo'yicha normal kreditorlik qarzlari qonuniy tarzda vujudga keladi. Bular quyidagilardan iborat:

- schyotlar bo'yicha belgilangan haq to'lash muddatlari doirasida mahsulot etkazib beruvchilar oldidagi qarzidorlik;

- mehnatga haq to'lash bo'yicha ishchi va xizmatchilar oldidagi hamda ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari bo'yicha kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlari oldidagi qarzidorlik;

- moddiy boyliklarning haqini to'lash muddati hali kelmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan qarzidorlik;

- soliqlar bo'yicha davlat oldidagi qarzidorlik va boshqalar.

Kreditorlik qarzi moliyaviy intizom hamda belgilangan hisob-kitob tartibi bo'zilishi munosabati bilan ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, muddatida to'lanmagan to'lov hujjatlari bo'yicha va amalga oshirilmagan mahsulot etkazib berishlar bo'yicha tovar etkazib beruvchilarga qarzar; olingan moddiy boyliklar qiymati to'langan schyotlar so'mmasidan ortik bo'lganida vujudga keladigan mahsulot etkazib beruvchilarga qarzar va hokozo.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari ham normal emas. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 12 maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-1154-Farmonini qisman o'zgartirish to'g'risida»gi 1999 yil 19 iyuldagi Farmonida muddati 90 kundan oshib ketgan qarzar muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari deb hisoblanishi kerakligi belgilab ko'yildi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

150-moddasiga muvofiq qarzlarni yuzasidan da'vo arizasi berish mumkin bo'lgan umumiy muddat uch yilni tashkil etadi².

Debitorlik qarzi, korxonaning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarda turgan mablag'laridir. Korxonaning o'z mablag'lari yoki boshqa korxonalarning mablag'lari bu qarzlarni ko'plash manbai bo'lib xizmat qiladi. Debitorlik qarzi qaytarilganida hisob-kitob schyotlari valyuta schyotlaridagi, kassadagi pul mablag'lari yoki tovar-moddiy boyliklar ko'payadi. Balans yakuni o'zgarmaydi. Lekin agar korxona boshqa korxonalar yoki banklardan kreditlar olish hisobiga mablag' bergan bo'lsa, balans yakuni shu so'mmaga ko'payadi, ya'ni debitorlik qarzi va olingan qarz so'mmasi boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlar so'mmasi ko'payadi. Biroq, korxonaning o'zida bu mablag'lar bo'lmaydi.

Kreditorlik qarzi, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan vaqtincha jalb etilgan mablag'lardir. Ulardan shu korxonaning aylanmasida vaqtincha foydalaniladi. Ularni to'lash muddati kelganida bu mablag'lar aylanma mablag'lar so'mmasidan olib berilishi kerak.

Kreditorlik qarzi qaytarilganida majburiyatlar so'mmasi kamayadi yoki qarz tugatiladi. Shuningdek, aylanma mablag'lar, ya'ni pul mablag'lari, tovar-moddiy boyliklar ham kamayadi. Bunday holatda buxgalteriya balansining yakuniy so'mmasi kamayadi, qarz korxonaning mablag'lari hisobidan o'ziladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni o'rganish debitorlik qarzi qoida tariqasida, pul va moddiy mablag'lar amalda chiqib ketishi hisobiga paydo bo'lishini, ularning kamayishi esa pul va moddiy mablag'lar kaytib kelishi yoki qayta baholanishi natijasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatmokban.

²www.lex.uz

Kreditorlik qarzi tashqaridan mablag'lar kelishi (mahsulot etkazib berilishi, shu'ba va uyushmaga kirgan korxonalarga qarzlar) hamda xo'jalik faoliyati jarayonida qarz paydo bo'lib, uning yozilishi natijasida vujudga keladi. Kreditorlik qarzining ushbu guruhi bo'yicha qarz xo'jalik faoliyati jarayonida yozilganida paydo bo'ladi, qarzlar olingan daromadlar hisobiga to'lanadi.

Shu munosabat bilan korxona rahbarlari qarzni yozish davrining qisqarishiga va u korxona daromatlari hisobidan to'lanishlariga erishishlari kerak.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini o'rganish va tahlil qilish uchun ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni bilishni takozo qiladi.

2. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING VUJUDGA KELISH SABABLARI HAMDA ULARNI BOSHQARISH.

Debitorlik qarzlaridan tushadigan mablag'lar ishlab chiqaruvchi korxonaning asosiy pul mablag'lari manbalaridan biri hisoblanadi. Xaridorlar majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasalar korxonada pul mablag'lari defistiti kelib chiqadi, joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun korxonaning aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoji oshadi, moliyaviy holati yomonlashadi. Bu esa o'z navbatida korxona va xaridorlar o'rtasidagi hisob munosabatlarni o'zgartirish, kredit va qarzlarni so'ndirishga qaratilgan mos siyosatni ishlab chiqish kerakligini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari istalgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nazorat qilish bo'yicha asosiy e'tiborini faqatgina debitorlik qarzlariga emas, balki, kreditorlik qarzlariga ham qaratadi. Shuning uchun qarzlar harakati ustidan qo'yiladigan nazoratning asosiy vazifalaridan biri debitorlik qarzlar darajasini kreditorlik qarzlari darajasigacha oshmaydigan hajmgacha kamaytirish hisoblanadi.

Debitorlik qarzlar ustidan doimiy nazorat qarzlar kechikish va jarima solishgacha yo'l qo'ymay, o'z vaqtida so'ndirilishini ta'minlashi kerak.

Debitorlik qarzlar korxonada naqd pulning kamayib ketishiga olib keladi, bu o'z navbatida ishlab chiqarish uzluksizligi buzilishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun debitorlik qarzlar ustidan uzluksiz nazoratni o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z vaqtida so'ndirilmagan debitorlik qarzlar bo'yicha qarzdorlarga nisbatan jazo choralari yoki biror bir javobgarlikka tortish boshqaruvda muhim sanaladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlar vujudga kelish sabablari:

1. Bir tizimga bo'ysunuvchi korxonalar o'rtasida zanjirli bog'lanish mavjudligi (bunga misol sifatida davlat xaridi bo'yicha etishtirilgan mahsulotni davlatga etkazib berish, o'z navbatida davlat tomonidan xo'jalik sub'ektiga zarur moddiy resurslar etkazib berilishini keltirish mumkin);
2. Korxonalarda moliyaviy beqarorlik holatlarining yuzaga kelishi;
3. Debitorlik va kreditorlik qarzlar bo'yicha ta'sir doirasining pastligi (bunga misol sifatida qarzlar bo'yicha jarimalarning pastligi ularning sun'iy ravishda o'sishini keltirishimiz mumkin);
4. Makroiqtisodiy beqarorlik holatlari yuzaga kelishi;
5. Avans to'lovlari amal qilishi.

Debitorlik qarzlaridan tushadigan mablag'lar ishlab chiqaruvchi korxonaning asosiy pul mablag'lari manbalaridan biri hisoblanadi. Xaridorlar majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasalar korxonada pul mablag'lari defistiti kelib chiqadi, joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun korxonaning aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoji oshadi, moliyaviy holati yomonlashadi. Bu esa o'z navbatida korxona va

xaridorlar o'rtasidagi hisob munosabatlarni o'zgartirish, kredit va qarzlarni so'ndirishga qaratilgan mos siyosatni ishlab chiqish kerakligini keltirib chiqaradi.

Debitorlik qarzlari ustidan doimiy nazorat qarzlarni kechikish va jarima solishgacha yo'l qo'ymay, o'z vaqtida so'ndirilishini ta'minlashi kerak.

Debitorlik qarzlari korxonada naqd pulning kamayib ketishiga olib keladi, bu o'z navbatida qandaydir operatsiya bajarimay qolishiga, ayrim hollarda ishlab chiqarish to'xtab qolishiga olib kelishi ham mumkin. SHuning uchun debitorlik qarzlari ustidan uzluksiz nazoratni o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z vaqtida so'ndirilmagan debitorlik qarzlari bo'yicha qarzdorlarga nisbatan jazo choralari yoki biror bir javobgarlikka tortish boshqaruvda muhim sanaladi.

Debitorlik qarzlarning miqdori aylanma aktivlar tarkibida egallagan ulushidan kelib chiqib o'z ta'sirini ko'rsatadi. Korxonada ko'p holatlarda oz bo'lsada debitorlik qarzlari bo'ladi. Bu odiy holat bo'lishi mumkin, lekin hozirgi kunga kelib korxonalar bo'sh pul mablag'laridan yanada samarali foydalanishga intilishlarini hisobga oladigan bo'lsak, debitorlik qarzlari bu holatda foydalanib bo'lmaydigan bo'sh turgan mablag'lar hisoblanadi.

Debitorlik qarzlarni boshqarish korxona aylanma aktivlarini boshqarish umumiy siyosati tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, debitorlik qarzlarni boshqarish korxona marketing siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak.

Debitorlik qarzlari :


- Xaridor va buyurtmachilar qarzi;
- Olingan veksellar;
- SHo'ba va filiallar qarzi;
- Berilgan avanslar;
- Boshqa debitorlik qarzlari.

Debitorlik qarzlari boshqarishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- Debitorlik qarzlari bo'yicha aniq chegara va me'yorni belgilash;
- Iste'mol kreditlari, tijorat kreditlari bo'yicha aniq sxemalar ishlab chiqish (to'lov jadvallari ishlab chiqish);
- Xaridorlar bilan optimal hisob-kitob shaklini shakllantirish, oldindan to'lov, akkreditivlardan maksimal foydalanish (akkreditiv – to'lovni kafolatlash maqsadida tijorat bankida shartnoma qiymatiga teng miqdorda maxsus hisobraqam ochish);
- Debitorlik qarzlari muddatlar bo'yicha tasniflash;
- Debitorlik qarzlari diversifikatsiyalash (faqatgina sanoqli mijozlar bo'yicha debitorlik qarzlari shakllanishiga yo'l qo'ymasdan keng miqyosda ko'plab sub'ektlar bilan hamkorlikka kirishishni nazarda tutadi);
- Debitorlik qarzlarning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'sirini doimiy monitoring qilish, debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatini nazorat qilish va h.k;
- Debitorlik qarzlari bo'yicha ta'sir choralari belgilash, ya'ni etkazib berilgan tovarlarga shartnomada ko'rsatilgan muddatdan oldin to'lovlar amalga oshirilganda chegirmalar belgilash (qo'llash) va aksincha, muddati o'tgan debitorlik qarzlari bo'yicha jarimalar belgilash (qo'llash) (har ikkalasi ham shartnomada keltiriladi);
- Debitorlik qarzlari yuzaga kelishi ehtimoli past bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishini oshirish va aksincha debitorlik qarzlari yuzaga chiqish ehtimolligi yuqori bo'ladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirish dasturlarini aniqlashtirish.

Debitorlik qarzlari boshqarish 8ta bosqichdan iborat (2.1-rasm).

Bundan tashqari istalgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nazorat qilish bo'yicha asosiy e'tiborini faqatgina debitorlik qarzlarga emas, balki, kreditorlik qarzlarga ham qaratadi. SHuning uchun qarzlarning harakati ustidan qo'yiladigan nazoratning asosiy vazifalaridan biri debitorlik qarzlarning darajasini kreditorlik qarzlari darajasigacha oshmaydigan hajmgacha kamaytirish hisoblanadi.




2.1-rasm. Debitorlik qarzlari boshqarish bosqichlari³

Kreditorlik qarzlari:

- ▶ Mol etkazib beruvchi va pudratchilardan qarz;
- ▶ To'lanadigan veksellar;
- ▶ Ish haqi bo'yicha qarzlari;

- Byudjet oldidagi qarzlar;
- Olingan avanslar;
- Boshqa kreditorlik qarzlar.

Korxonaning to'lovga qobiliyatligini va moliyaviy barqarorligini saqlash maqsadida kreditorlik qarzlarini boshqarishda quyidagilarga amalga oshiriladi (2.2-rasm)



2.2-rasm. Kreditorlik qarzlarini boshqarish usullari⁴

⁴ Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili – Toshkent: SHARQ, 2007y 70.b

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida har bir xo'jalik sub'ekti o'z faoliyatini olib borish jarayonida albatta ma'lum darajadagi debitorlik yoki kreditorlik qarzdorlikka yo'l qo'yadi. Chunki, ishlab chiqarish korxonalarida mahsulotni etkazib berish bilan uning to'lovi o'rtasida doimo ma'lum bir farqlanishlar bo'lishi tabiiydir. Shu sababli ham, debitorlik qarzlarning tarkibiy to'zilishini va ularning vujudga kelish muddatlarini o'rganib, taxlil qilib chiqish muxim hisoblanadi.

Taxlil etishning asosiy maqsadi - debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanish davrini tezlashtirish asosida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash borasida chora-tadbirlar belgilashdan iborat. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha hisobot, ma'lumotnoma har oyning 1-sanasida tuzilib, tegishli tashkilotlarga topshiriladi. Ushbu ma'lumotnomadan korxonaning majburiyatlar balansini ham tuzish mumkin.

Taxlil etishda korxonalarning muayyan davrga bo'lgan o'zaro debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga, tarkibiga, tashkil topish muddatlariga, yuzaga chiqish sabablariga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarning oqlanuvchanligiga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho beriladi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini urinishda moliyaviy taxlilning asosiy vazifalari bo'lib:

- debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzaga chiqish sabablarini urinish;
- korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga baho berish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelish muddatlari bo'yicha tasniflagan holda urinish;
- debitorlik qarzlarning tarkibiy to'zilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- kreditorlik qarzlarning tarkibiy to'zilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;

- debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligiga baho berish;
- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning mavjudligini va ularni tugatish yo'llarini o'rganish;
- qarzlarni kamaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni ko'rsatib berish va xokazo.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlarni o'rganishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ korxonaning «Buxgalteriya balansi» (1-shakl) ma'lumotlari;
- ✓ «debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnoma» dan;
- ✓ buxgalteriya hisobining debitorlik va kreditorlik qarzlarni aks ettiruvchi tegishli schyot ma'lumotlari.

Debitorlik va kreditorlik kazlari korxona balansi yani har chorakda tuziladigan korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlari holati to'g'risidagi hisobotda ham aks ettiriladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining undirib olish muddatdan sung debitorlik kreditorlik majburiyatlari nazoratga olinadi hamda ularning holati bo'yicha davlat qonunchiligiga muvofik javobgarlik shartlari (ma'muriy va moliyaviy) belgilangan.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini hisobdan chiqarish muddati sifatida huquqiy shaxslar O'rtasida 1 yil, korxona bilan jismoniy shaxslar O'rtasida 3 yil muddat belgilangan. Ushbu muddatda to'lanmagan yoki undirib olinmagan majburiyatlar, qarzlari korxona foyda va zararlariga olib boriladi. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari davlat tamonidan nazorat qatori sifatida olingan. Muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik majburiyatlari korxona foydasiga qo'shiladi va umumiy asosda foydadan soliq stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi. Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlarini zararga olib borish soliqqa tortiladigan foyda so'mmasini kamaytirmaydi.

Sarmoyani immobilizastiyalash koeffistienti ($K_{s.im.}$) xo'jalik mablag'lari umumiy so'mmasida debitorlik qarzining ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{с.им.} = \frac{Доб.қарз}{с} \quad (1)$$

bunda: Deb.qarz - debitorlik qarzi;

S - xo'jalik mablag'lari (sarmoya)ning umumiy so'mmasi.

Ushbu koeffistient qancha katta bo'lsa, umumiy sarmoya so'mmasidan shuncha ko'p mablag' debitorlik qarziga jalb etiladi va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar qo'lida bo'ladi.

Aylanma mablag'larni immobilizastiyalash koeffistienti ($Ayl.K_{mab.im.}$) debitorlik qarzining aylanma mablag'lardagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Айл.Кмаб.им. = \frac{Доб.қарз}{Айл.маб.} \quad (2)$$

bunda: Ayl.mab. - aylanma mablag'lar so'mmasi.

Ushbu koeffistient qancha yuqori bo'lsa, shuncha ko'p aylanma mablag' aylanishdan debitorlik qarzlariga jalb etilgan bo'ladi va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'ladi.

Jalb etilgan mablag'lar koeffitsienti ($K_{j.m.}$) kreditorlik qarzining xo'jalik mablag'lari umumiy so'mmasidagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{j.m.} = \frac{K_{\text{ред.қарз}}}{C} \quad (3)$$

bunda: Kred.qarz - muayyan sanadagi kreditorlik qarzi so'mmasi.

Koeffitsient oshib borgan sari kreditorlik qarzining korxona umumiy xo'jalik mablag'lari so'mmasidagi salmog'i ham oshib boradi va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarning aylanmaga jalb etilgan mablag'lari ko'payishidan dalolat beradi.

Ushbu koeffitsientdan kreditorlik qarzini tahlil qilish chog'ida foydalaniladi. Agar mablag'lar manbalari tahlil kilinayotgan bo'lsa, jalb etilgan mablag'lar koeffitsientini quyidagi formula bo'yicha hisoblash zarur:

$$K_{j.m.} = \frac{П2Б}{C} \quad (4)$$

bunda: P2B - balans passivi 2-bo'limining jami.

U jalb etilgan mablag'larning xo'jalik mablag'lari umumiy so'mmasidagi ulushini ko'rsatadi.

Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti ($K_{kr.deb.n.}$) kreditorlik qarzining debitorlik qarzidagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{кр. деб. н.} = \frac{Кред. қарз}{Деб. қарз} \quad (5)$$

Agar ushbu koeffitsient 1,0 dan ko'p bo'lsa, u kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan oshib ketganligini, ya'ni xo'jalik mablag'lari umumiy so'mmasidagi jalb etilgan mablag'lar boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qo'lidagi mablag'lardan ortiq ekanligini ko'rsatadi va aksincha. Agar bu koeffitsient 1,0 dan kam bo'lsa - boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan mablag'lar jalb etilgan mablag'lardan ortiq ekanligini ko'rsatadi.

Muddati o'tgan debitorlik qarzi koeffitsienti ($K_{муд.д.к.}$) debitorlik qarzida uning muddati o'tgan qismi qanday ulushga egaligini ko'rsatadi va quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$K_{муд.д. к.} = \frac{Муд.деб.к.}{Деб.қарз.} \quad (6)$$

bunda: Mud.deb.k. - muddati o'tgan debitorlik qarzi so'mmasi.

Ushbu koeffitsientning ortib borishi qarzlarni undirishdagi mavjud kamchiliklarni, moliyaviy ahvol, buyurtmachilar, xaridorlar tomonidan hisob-kitob-to'lov intizomi bo'zilyotganligi kabi salbiy jarayonlarni ko'rsatadi.

Muddati o'tgan kreditorlik qarzi koeffitsienti ($K_{муд.кр.к.}$) kreditorlik qarzida uning muddati o'tgan qismi qanday ulushga egaligini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{муд.кр. к.} = \frac{Муд.кред.к.}{Кред.қарз} \quad (7)$$

bunda: Mud.kred.k - muddati o'tgan kreditorlik qarzi so'mmasi.

Bu koeffitsientning ortishi hisob-kitob-to'lov intizomida kamchiliklar mavjudligini, korxonaning moliyaviy ahvoli yomonligini, uning nolikvidliligi va to'lovga qobiliyatsizligini ko'rsatadi.

Bo'larning barchasi korxonaning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korxona rahbarlari muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni tugatish, shuningdek, mahsulot etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitob hamda to'lov intizomini yaxshilash uchun hamma choralarni ko'rishi, byudjetga soliqlarni o'z vaqtida va to'la hajmda to'lashi kerak.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning har bir turi bo'yicha ularning kelib chiqish sabablarini, bu mablag'larni qaytarish imkoniyatini aniqlash, ularni kamaytirish yuzasidan aniq tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Har bir korxona rahbari debitorlik va kreditorlik qarzlari holati faqat shu korxonaning emas, balki unga hamkor korxonalarning va umuman butun respublika iqtisodiyotining moliyaviyahvoliga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri ekanligini doimo nazarda tutishi kerak.

Taxlil etishda debitorlik majburiyatlarining hajmi tarkibi hamda vujudga kelish muddati bo'yicha o'rganish asosida ularning holatiga, aylanuvchanlik darajasiga, debitorlik qarzlari bilan bogliq bo'lgan moliyaviy holat ko'rsatkichlariga baho beriladi.

Kreditorlik majburiyatlarini taxlil etishda ularning yuzaga kelish o'ri, muddati va tarkibiga alohida ahamiyat qaratilmog'i lozim. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarga yo'l qo'yilishi korxonaga nisbatan turli iqtisodiy ogoxlantirishlarning ko'llanilishiga, iqtisodiy jarimalarga hamda korxonaga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi.

Ikki tomonlama shartnoma majburiyatlarida bir korxonaning o'zi ham debitor, ham kreditor bo'lishi mumkin. Masalan, tovar etkazib berish shartnomasi bo'yicha tovarlar berilgan bo'lsa-yu, ularning puli to'lanmagan bo'lsa, mahsulot

etkazib beruvchida bu so'mma debitorlik qarzi deb ko'rsatiladi va u debitor deb, ya'ni xaridorga ma'lum so'mmadagi tovarlarni qarzga bergan deb hisoblanadi. SHu korxonaning o'zi mazkur tovarlarni sotib olgan xaridor uchun kreditor bo'ladi. Xaridor sotib olingan tovarlar bo'yicha mana shu qarz so'mmasini batamom to'lab bo'lguncha kreditorlik qarzi deb ko'rsatadi.

3. XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING DEBITORLIK VA KREDITORLIK MAJBURIYATLARINING TAHLILI.

Har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalarda, xo'jalik-moliyaviy faoliyatini amalga oshirish jarayonida majburiyatlar yuzaga keladi. Korxona majburiyatlarini shakllanishi yoki vujudga kelishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchi bobda biz, korxona majburiyatlari va ularni tarkibi bo'yicha ma'lumotlar berib o'tgandik. Aynan ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda ishimizning ushbu bobida korxonalarni ikkinchi taraf bilan yuzaga keladigan majburiyatlari, ularni shakllanish mexanizmi va ularni hozirgi kundagi xolatini, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar misolida taxlil qilib o'tamiz.

Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar boshqa xo'jalik sub'ektlari va moliyaviy muassalar bilan moliyaviy iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida debitorlik va kreditorlik qarzlari vujudga kelishi tabiiy holat hisoblanadi. Korxona majburiyatlarining asosiy tarkibiy moddalaridan biri bu korxonalarning kreditorlik qarzlari hisoblanadi. Korxonalar kreditorlik majburiyatlari qatoriga 2002 yil 27 dekabrda tasdiqlangan buxgalteriya balansiga ko'ra quyidagi qatorlar kiritiladi:

- mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000);
- ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110);
- sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qarz (6120);
- soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240);
- olingan bo'naklar (6300);
- byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400);
- sug'urtalar bo'yicha qarz (6510);
- maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520);
- ta'sisчилarga bo'lgan qarzlari (6600);
- mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700);
- boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900).

Kreditorlik majburiyatlari qarshi tomonga korxonaning to'laydigan majburiyatlarini xarakterlaydi. Biz yuqorida uning tarkibiga nimalar kirishini aytib o'tdik. Kreditorlik majburiyatlari yuzaga chiqishining asosiy sababi sifatida bevosita debitorlik majburiyatlarining vaqtida kelib tushmasligini ta'kidlash ham mumkin. Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi taxlilida qarzдор bo'lgan tomonlar bo'yicha majburiyatlarning qatorlanishi, ularni to'lash muddatlari bo'yicha tarkiblanishiga baho beriladi. SHuningdek, debitorlik majburiyatlarining aylanish ko'effisienti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi bunda ham kreditorlik majburiyatlarini aylanish ko'effisienti va davri aniqlanadi. Lekin, bunda qatnashuvchi ko'rsatkichlar farqlanadi. Kreditorlik majburiyatlarining aylanishini o'rganishda asosiy ko'rsatkichlar sifatida nasiyaga olingan yoki hali puli to'lanmagan mollar ashyolar, ish va hizmatlar summasiga hamda kreditorlik majburiyatlarining haqiqiy ko'rsatkichlariga murojat qilinadi. Korxonalarda kreditorlik majburiyatlarini taxlil etishda ularning yuzaga kelish o'zni, muddati va tarkibiga alohida ahamiyat qaratilmog'i lozim. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlariga yo'l qo'yilishi korxonaga nisbatan turli iqtisodiy ogohlantirishlarning qo'llanilishiga, iqtisodiy jarimalarga hamda korxonaga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi.

Korxona kreditorlik majburiyatlarining to'lash muddatlari bo'yicha quyidagi tarkibni berib o'tish mumkin:

- to'lash muddati kelgan majburiyatlar;
- to'lash muddati o'tib ketgan majburiyatlar.

Yil kalendar davrining taqsimi bo'yicha kreditorlik majburiyatlarining quyidagi shakllarini berish mumkin:

- 1 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 1 oydan 2 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 2 oydan 3oyga bo'lgan majburiyatlar;
- 3 oydan 6 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan majburiyatlar;
- 1 yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlar.

4. XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI KAMAYTIRISH YO'LLARI

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil va samarali isloxotlar natijasi ularoq iqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligi saklanib kolinmoqda, bunga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida iqtisodiyotning modernizastiya kilinishi, ishlab chiqarishni erkinlashtirish dasturining bekamu-kust bajarilishi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida o'zaro majburiyatlarning o'z vaqtida ijro etilishi, to'lov intizomiga amal qilinishini keltirish mumkin.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida har bir korxona erkinligining ta'minlanishi bilan birga ularning mas'uliyati ham oshib boradi. Bu ayniqsa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning majburiyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Mavjud majburiyatlar o'z vaqtida xal kilinmasa, mos ravishda bir qancha kushimcha muammolarning ham kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Har bir yuridik sub'ektdan o'zining tarkibidagi mablag'lar va ularni moliyalashtirish manbalarini doimiy ravishda nazorat qilib turish talab etiladi. Faoliyatning barqarorligini ta'minlab turishda yuridik shaxslar qarzli munosabatlarga kirishadi. Bu esa ular majburiyatlarining oshib ketishiga olib keladi. Fikrimizcha, majburiyatlar tahlilini korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholash asosida olib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda avvalo, majburiyatlarning yuzaga kelishi, dinamikasi, tarkibiy tahlili, debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanish koeffistienti, yuridik shaxslarning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati, moliyaviy mustaqilligi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash tahlilning dolzarb vazifalari qatoriga kiradi.

Debitorlik qarzlari boshqarish korxona foydalilik darajasiga ta'sir etadi va past samarali xaridorlarga nisbatan diskont va kredit siyosati, qarzlarni undirish jarayonini tezlashtirish va umidsiz qarzlarni kamaytirishni hamda kafolatlangan pul oqimlarini kelib tushushini ta'minlaydigan sotish shartlarini aniqlab beradi. Debitorlik qarzlarni boshqarishga quyidagilarni kiritish mumkin: buyurtmalarni hisobga olish, hisoblarni rasmiylashtirish va debitorlik qarzlarning shartlarini belgilash. Debitorlik qarzlarni boshqarishda ba'zi bir narsalarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Masalan, tovarni sotish operastiyasi va u bo'yicha hisob-fakturani jo'natish orasidagi o'rtacha vaqtni kamaytirish. SHu bilan birga debitorlik qarzlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni hisobga olish zarur.

Debitorlik qarzlarni boshqarish ikkita vaqt zahirasi bilan ham bog'liqdir: hisob-fakturani yozib berish va uni pochta orqali jo'natish. Hisob-fakturani yozish muddati bu iste'molchiga tovarni jo'natish va u bo'yicha hisobni yozishgacha bo'lgan muddatdir. Korxona hisob-fakturani tovar bilan jo'natishi maqsadga muvofiqdir.

Pochta orqali jo'natish muddati- hisob-fakturani tayyorlash bilan uni iste'molchi olishigacha bo'lgan davrdir. Hujjatlarni pochta orqali jo'natish vaqtini hisob-fakturalarni markazlashtirmaslik hisobiga va pochta jo'natmalarini (katta hajmdagi hisob-fakturalarni tezkor pochta orqali jo'natish orqali) tezlashtirish hisobiga qisqartirish mumkin.

Debitorlik qarzlarni boshqarishdagi yana asosiy xususiyatlardan biri sotish hajmiga va pul oqimlariga ta'sir etadigan kredit muddatini aniqlashdir. Masalan, kredit muddatini nisbatan uzaytirish sotuv hajmini oshirishi mumkin. Kreditga berish muddati debitorlik qarzlari bilan bog'liq bo'lgan xarajat va daromad bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikka egadir. Agar kredit berish muddatlari qattiq bo'lsa korxonaning kamroq vositalari debitorlik qarzlarga investitsiya qilinadi va umidsiz qarzlardan yo'qotishlar kam bo'ladi, lekin bu sotish hajmini kamayishiga,

korxona daromadining pasayishiga va iste'molchilarga salbiy ta'sir etishga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan kredit berish muddati noaniq bo'lsa, ya'ni uzoqroq muddatni tashkil etsa korxona sotish hajmini va daromadini oshirishga erishishi mumkin, lekin shu bilan birga umidsiz qarzlarning oshishi bilan bog'liq xatarni va kam samarali iste'molchilarni to'lovlarni ortga surishi bilan bog'liq xarajatlarini ortishi mumkin. Agar ishlab chiqarish korxonasi bo'lsa ortiqcha tovar zahiralariga, muddati o'tib borayotgan tovarlarga yoki mavsumiy tovarlarga ega bo'lsa, debitorlik qarzlarning muddatlarini erkinlashtirish mumkin. Agar korxona tovari yuqori ehtiyojga ega bo'lsa, debitorlik qarzlari muddatini kamaytirish yoki to'lovni tovarni etkazish jaryonida amalga oshirishni qo'llash mumkin. Potensial iste'molchini to'lov qobiliyatini baholashda uning moliyaviy ahvoli va mulkiga baho berish zarur.

Kredit muddatini uzaytirish o'zi bilan birga qo'shimcha xarajatlarni ham paydo bo'lishiga olib keladi: kredit bo'limini, komp'yuter bo'limini ma'muriy xarajatlari ortishi, komission va boshqa xarajatlarning ortishi.

Debitorlik qarzlarni boshqarish usullari va yondashuvlarda deyarli har bir korxona va firmalarda o'ziga xoslik mavjuddir. Lekin ko'plab firma va kompaniyalarda eng ko'p tarqalgan usullardan foydalaniladi.

Aloqa korxonalarida debitorlik qarzlarni boshqarishda ham xorijiy ham an'anaviy usullardan foydalanish zarur. Aloqa sohasidagi korxonalarda debitorlik qarzlarni boshqarishda tizimli yondashuv juda qo'l keladi. Hozirgi kunda aloqa korxonalarida debitorlik qarzlarni boshqarish bilan faqat «debitorlik qarzlari bilan ishlash bo'limi» shug'ullanayotgan bo'lsa, tizimli yondashuvda korxona huquqshunosi, «mijozlar bo'limi», «marketing bo'limi», «debitorlik qarzlari bilan ishlash bo'limi» debitorlik qarzlarni boshqarishda bitta tizim sifatida faoliyat yuritadi.

Marketing bo'limi – mijozlarni to'lov holatini va ularga ta'sir etadigan omillarni o'rganadi, ikkinchi bosqichga mijozlarni to'lov bashoratini etkazadi.

Debitorlik qarzlari bilan ishlash bo'limi – yuqoridagi bo'limlar tayyorlab bergan ma'lumotlarga asoslangan holda debitorlar bilan ishlaydi, qarzdorliklarni kamaytirib, korxonaning aylanma mablag'ini oshishini ta'minlaydi.

Aloqa sohasidagi korxonalarning debitorlik qarzlarni boshqarishda tizimli yondashish aloqa xizmatlari uchun to'lovlarning aylanishini tezlashtiradi, debitorlik qarzlarni kamaytiradi va mijozlar bilan ishlashda turli marketing va boshqa usul va vositalarni keng qo'llash imkonini beradi.

Moliyaviy axvolni yaxshilashning asosiy yo'llaridan biri korxonada debitor qarzlarning ko'paymaslik chorasini ko'rishdir. Hozirgi paytda juda ko'p firmalar va korxonalar moliyaviy jihatdan barqaror emas. Bunday ishonchsiz sub'ektlar bilan iqtisodiy munosabatda bo'lish o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bunday korxonalarga tovar berish va xizmatlar ko'rsatish, pul o'tkazish harakatdagi mablag'ni o'lik mablag'ga aylantirish bilan barobar. SHu tufayli bunday xo'jalik operastiyalarini sodir qilishdan oldin hamkor sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ham chuqur o'rganishni talab qiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarni kamaytirish yo'llari haqida gapirar ekanmiz, uni quyidagi rasmda keltirilgan taklif va tavsiyalar orqali samarali natijaga erishishimiz mumkin:

- o'zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning ma'sulligi va ularning shartnoma shartlariga qa'tiy amal etishini nazorat qilish;
- xizmatlar hajmini oshirish va sifatini yaxshilash;
- muddati o'tkazib yuborilgan har qanday to'lovlar summasi bo'yicha huquqiy javobgarlik shartlarini belgilash va hokozolar.

Har bir korxona rahbari debitorlik va kreditorlik qarzlari holati faqat shu korxonaning emas, balki unga hamkor korxonalarning va umuman butun

respublika iqtisodiyotining moliyaviy ahvoliga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri ekanligini doimo nazarda tutishi kerak.

Hozirgi sharoitda korxonalarning juda ko'p xarajati banklardan olingan qarz uchun to'lanadigan foiz xarajatiga ketmoqda. SHu tufayli korxona imkoni boricha oborotdagi mablag'larda o'z mablag'ining ulushini ko'paytirishi va nihoyat barcha oborot mablag'larini o'zining hisobidan qoplashi lozim. Bunda bankga to'lanadigan foizdan xolos bo'ladi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi tez o'zgarayotgan, fan-texnika taraqqiyoti jadallashayotgan paytda asosiy vositalarni juda tez yangilashni toqozo qiladi. Bu esa eskirish so'mmasini hisoblashning tezkor usullarini qo'llashni talab qiladi.

Moliyaviy axvolni yaxshilashda chetdan jalb qilingan mablag'lar, xususan bank kreditining ham roli katta. Korxonaning moliyaviy potentsiali tarkibida chetdan jalb qilingan mablag'lar hissasi kamayib borishi lozim. Bank kreditining foiz yuqori bo'lib turgan hozirgi sharoitda har bir korxona imkoni boricha undan kam foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ish barqarorlashib, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyati bir me'yorga tushib olgan paytdagina bank kreditidan foydalanish ma'lum darajada yaxshi natija berishi mumkin. SHu tufayli moliyaviy axvolnini ta'minlash uchun bank kreditidan foydalanish vaqtini, uning hajmini ham chuqur bilishni talab qiladi.

XULOSA

Iqtisodiyotni modernizastiyalash jarayonida har bir korxona moliyaviy jarayonlari, holati, to'lov qobiliyati to'g'ridan-to'g'ri uning debitorlik va kreditorlik majburiyatlari xolati va aylanuvchanligi bilan bog'liq.

xo'jalik yurituvchi korxonalarda debitorlik qarzlarni kamaytirish maqsadida shartnomaviy munosabatlarini yanada kuchaytirish; xizmatlar hajmini oshirish va sifatini yaxshilash; mahsulot etkazib beruvchilar va xaridor korxonalarning moliyaviy ahvolini o'rganish va hokozalar.

Xulosa qilib aytganda, korxonalar qarzdorligining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning asosiy tendensiyalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimiz korxona va tashkilotlari mavjud huquqiy-tashkiliy imkoniyatlardan foydalangan holda qarzdorlikni bartaraf etish muhim masalalardan hisoblanadi, chunki uning ijtimoiy jihatdan salbiy oqibatlari nafaqat korxonaning moliyaviy faoliyatiga, balki iqtisodiyotning barcha jabhalariga, shu jumladan aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni. –T.: O'zbekiston, 2000.
4. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
7. Vahobov A.V. va boshq. Prezident I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli kitobini o'rganish bo'yicha qo'llanma.-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni tashkil qilish to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash to'g'risidagi 1999 yil 5 fevralda 54-sonli qarori. (o'zgartirishlar bilan)
9. Vahobov. A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik.-T.: SHarq. 2005.- 480 b.
10. Pardaev A.X., Pardaev B.X. «Boshqaruv hisobi». «G'afur G'ulom» nashriyoti. Toshkent, 2008 y. 251 b.
11. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili.-T.: Moliya. 2003.-224 b.
12. Akramov E.A. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. Uchebnoe posobie.-T.: izd. TGEU. 2000.-168 s.

13. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot.-T.: Moliya. 2003.-247 b.

14. Abdukarimov I. Menejerga debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida, «Bozor, pul va kredit» 1999 yil № 11.

15. Abdukarimov I. Menejerga korxona aylanma mablag'lari haqida, «Bozor, pul va kredit» 1999 yil №10.

9. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2008 y.

www.gov.uz

www.google.uz

www.norma.uz

www.ccitt.uz

www.bankinfo.uz

www.forex.com

www.thebanker.com

www.ziyonet.uz